



## NUTQ KAMCHILIGIGA EGA BO'LGAN BOLALAR UCHUN MAXSUS MUASSASALAR TIZIMI

*Andijon davlat pedagogika instituti Maxsus  
Pedagogika (logopediya) yo'nalishi 2-kurs talabasi  
Mamarasulova Sojida Dilmuradjon qizi*

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15247735>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar uchun mo'jallangan maxsus muassasalar tizimi, ularning tuzilishi, faoliyat yo'nalishlari va metodikasi ko'rib chiqiladi. Nutq buzilishlari bolalarning ijtimoiy va akademik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi sababli, logopedik muassasalar va maxsus maktablar ularning ehtiyojlariga mos ravishda ishlab chiqilgan. Shuningdek, maqolada zamonzaviy pedagogik va logopedik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar hamda ushbu muassasalarning jamiyatdagi o'rni haqida ham so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Nutq buzilishlari, maxsus ta'lim, korreksion pedagogika, inkulyuziv ta'lim, nutq terapiyasi, punktlar.

Defektologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar orqali nuqsonni erta aniqlash va uni oldinroq tuzatish katta ahamiyatga ega ekanligi isbotlab berilgan. Bugungi kunda nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning so'z boyligini oshirish butun dunyoda balki, yurtimizda ham maxsus pedagoglarning muhim vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu muammolarni yechish maqsadida mamlakatimizda turli xil nutq kamchiligiga har tomonlama sistematik yordam rivojlanib bormoqda. Mana shunday muammolarni hal qilish uchun amalga oshirilayotgan yechimlar butun dunyoning pedagoglarini o'ylantirib kelmoqda. Ular jumlasidan Rossiyada qadimdan alohida mehr-muruvvat muassasalari mavjud bo'lib, ularda maxsus ta'lim jadal namoyon bo'lgan nuqsonlar karlik, aqli zaifliklarni ajratish va farqlash zaminida amalga oshirilgan.

Bolalar nuqsoni bilan kurashish bo'yicha I Butun Rossiya syezdi anomal rivojlanishining xilma-xil turlariga ega bo'lgan bolalar uchun tashkil qilinadigan maxsus ta'lim va tarbiya tizimi tamoyillarini belgilab beradi. Mana shunday tamoyillarning qaror topishi nuqsonga ega bo'lgan bolalarga bo'lgan e'tiborni yana kuchaytirdi.

Bir qator hollarda maxsus maktabgacha ta'lim va tarbiya rivojlanishdagi kamchiliklarni tuzatadi va bu bilan bolalarning maktabda o'qishida paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni oldini oladi. Yaqqol namoyon bo'lgan nutq nuqsonlari mavjud bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan tuzatish, tarbiyalash ishlarini erta boshlash nuqsonni sezilarli darajada kompensatsiya qilinishini ta'minlaydi.

1960-yildan boshlab sobiq SSSRda nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarga mo'jallangan maktabgacha tarbiya muassasalari tarmog'i rivojlana boshlagan. Dastlab bu ommaviy bog'chalar qoshida tashkil qilingan alohida eksperimantal guruhlar edi, keyinchalik esa nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan alohida bolalar bog'chalari tashkil topgan.

Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarga mo'ljallangan maktabgacha tarbiya muassasalarida barcha tuzatish jarayonlarini aniq tashkil qilish ko'zda tutiladi.

Tuzatish ishlariga quyidagilar, ya'ni:

-bolalarni o'z vaqtida tekshirish

-mashg'ulotlar jadvalini oqilona tuzatish

-har bir bola bilan olib boriladigan individual ishni rejalashtirish

-frontal mashg'ulotlarni rejalashtirish

-mashg'ulotlarni kerakli jihozlar va ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlash

-logopedning tarbiyachi va ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik qilishi orqali ta'minlanadi

Ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim muassasalari va nutqda nuqsoni bo'lgan bolalar guruhlari uchun namunaviy ta'minotlar yaratilmoqda. Bundan tashqari, umumiy bolalar bog'chalarida maxsus guruhlar, shuningdek, nutq terapiyasi markazlari mavjud. Umumta'lim



maktablarida logopediya markazlari mavjud bo'lib, ularda nutq terapevti nutqi buzilgan va o'rganishda qiyinchiliklarga duch keladigan bolalarga yordam beradi. Bundan tashqari nutqida nuqsone bo'lgan bolalar uchun maxsus maktablar ham mavjud bo'lib, ular ikkita bo'limdan iborat. Birinchi bo'limga umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qishga to'sqinlik qiladigan og'ir nutqi buzilgan bolalar qabul qilinadi. Ikkinchi bo'limga qattiq duduqlanishdan aziyat chekadigan bolalar qabul qilinadi.

Sobiq SSSR Ministerlari Sovetining 1948-yil 15-avgustdagi farmoni bilan o'rta umumiy ta'lim maktablari qoshida logopedik punktlar ochila boshladi. Logopedik punktlar maktab yoshidagi bolalarda mavjud bo'lgan nutq kamchiliklarini bartaraf etish uchun mo'jallangan maxsus ta'limiy va tarbiyaviy muassasalardir. Ular tumandagi umumiy ta'lim maktablarining birida tashkil qilingan bo'ladi. Har bir logopedik punktga muayyan miqdordagi maktablar soni biriktiriladi.

Uning asosiy vazifalari:

- o'quvchilarning nutq kamchiliklarini to'g'rilash
- o'qituvchular va aholi o'rtasida logopedik bilimlarni targ'ib qilish
- birinchi sinfga kelayotgan bolalardagi nutq kamchiliklarini o'z vaqtida aniqlash, oldini olishdan iborat.

Tovushlar talaffuzida kamchiligi bo'lgan, duduqlanuvchi, dizgrafik, dizleksik yaqqol namayon bo'lmaga nutqi rivojlanmagan bolalar logopedik punktlarning asosiy kontingenti hisoblanadi. Logopedik punktlarga bolalar psixonevrolog, o'qituvchi, ota-onalar tashabbusi bilan yuborilishi mumkin.

Logopedik ishning samaradorligi tuzatish tadbirlarining to'g'riligiga, o'qituvchi va logopedning o'zaro yaqin hamkorligi hamda bolalar nutqiga yagona talablar qo'yilishiga bog'liqdir. Bolalar nutqini to'g'rilashda ota-onalarning faol ishtirok etishi ham katta ahamiyatga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.M.Y.Ayupova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti, 2007.
- 2.L.R.Mo'minova. Nutq kamchiligi bor bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi. T., 2012.
- 3.L.R.Mo'minova, M.Y.Ayupova. Logopediya. -T.,1993.